

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY
TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI



OLIIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI
QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI
OSHIRISH INSTITUTI



Российская
АКАДЕМИЯ
ОБРАЗОВАНИЯ



Санкт-Петербургский
государственный
университет



ВИТЕБСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ П.М. МАСШЕРОВА



ISTANBUL
UNIVERSITY

TA'LIMDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING DOLZARB MASALALARI



XALQARO
ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA

2026-YIL 29-SENTABR

“TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING DOLZARB MASALALARI” XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

AXBOROT XATI

KONFERENSIYA HAQIDA

Konferensiyaga olimlar, soha mutaxassislari, oliy ta’lim, ilmiy-tadqiqot muassasalari, ta’lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlari, ilmiy izlanuvchilar, magistrlar, iqtidorli talabalar va barcha qiziquvchilar ishtirok etish uchun taklif etiladi!

Konferensiya o’tkazilish joyi va vaqti: Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, 2026-yil 29-sentabr.

Konferensiyaga maqolalar qabulining so’nggi kuni: 2026-yil 1-iyul.

Konferensiya tili: o’zbek, rus, ingliz.

Konferensiyaning maqsadi: ta’lim tizimida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning dolzarb masalalarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, innovatsion yondashuvlar va ilg’or xalqaro tajribalarni muhokama etish, shuningdek, sun’iy intellekt asosida ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan samarali mexanizmlarni ishlab chiqishdan iborat.

KONFERENSIYANING ILMIY YO’NALISHLARI

- 1.Sun’iy intellekt asosida ta’limni boshqarish va strategik rivojlantirish
- 2.Rahbar va pedagog kadrlarning kasbiy rivojlanishida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning innovatsion mexanizmlari
- 3.Ta’lim jarayonini qo’llab-quvvatlovchi raqamli platformalar va xizmatlar
- 4.Sun’iy intellektdan foydalanishda etik, huquqiy va ijtimoiy masalalar

RO'YXATDAN O'TISH VA KONFERENSIYA MATERIALLARINI TAQDIM ETISH

Tezislar 2026-yil 1-iyulga qadar www.conf.bimm.uz elektron platformasi orqali qabul qilinadi. Tezislarni belgilangan muddatdan kechiktirmasdan taqdim etish so'raladi.



Har bir tezis ishchi guruh tomonidan saralanadi. Saralangan tezislarni Index Copernicus, Zenodo, OpenAIRE, CyberLeninka, Google Scholar xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazalari, shuningdek www.bimm.uz platformasida joylashtirilishi hamda indeksatsiya qilinishi ta'minlanadi.

Mazkur ma'lumotlar bazalari va platformalarga har bir tezisni joylashtirish, ma'lumotlarini kiritish va indeksatsiya jarayonlarini amalga oshirish xizmati uchun to'lov miqdori har bir tezis uchun 130 000 (bir yuz o'ttiz ming) so'm etib belgilanadi.

*Konferensiya ishtirokchilariga sertifikat taqdim etiladi

KONFERENSIYA MATERIALLARINI RASMIYLASHTIRISHGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Maqolada ko'tarilgan muammolarning mazmuni, tadqiqot uslubining tavsifi, muallif tomonidan olingan natijalar, ma'lumotlar hamda xulosalar qisqa va aniq bo'lishi lozim.

Rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablar:

Matn formati Microsoft Word, satr oralig'i 1,5 intervalda, shrifti Times New Roman 14 kegel. Matn formatining chegarasi tepa va pastdan 2,0 sm, chapdan 3 sm, o'ngdan 1,5 sm hamda matn kengligi bo'yicha tekislangan bo'lishi lozim.

Maqola matnining yuqori qismida qator o'rtasida bosh harflar bilan maqola mavzusi va bir qator tashlab, o'ng tomonda muallif haqida quyidagi ma'lumotlar to'liq keltirilishi talab etiladi: familiyasi, ismi, otasining ismi, ish joyi, ilmiy darajasi va unvoni, telefon raqami, (talabalar uchun) ta'lim olayotgan muassasasi nomi, ta'lim yo'nalishi va mutaxassislik nomi, shuningdek elektron pochta manzili ko'rsatilishi lozim.

Saralangan maqolalar Index Copernicus, Zenodo, OpenAIRE, CyberLeninka hamda Google Scholar kabi xalqaro ma'lumotlar bazalariga joylashtirilishi rejalashtirilgani, mazkur jarayon belgilangan to'lov asosida amalga oshirilishini inobatga olgan holda, muallifning telefon raqamini qayta aloqa uchun ko'rsatish so'raladi.

Satr qoldirib, annotatsiya, kalit so'zlar, asosiy matn va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati yozilishi talab etiladi.

Tezis mualliflari 3 (uch) nafardan oshmasligi lozim. Har bir muallif mualliflik hissasi 1 (bir) koeffitsiyentgacha tezis yoki maqolalar taqdim etishi mumkin.

Havolalar (snoska) sahifa so'ngida beriladi. Tezis hajmi 3-5 bet bo'lishi hamda qaysi sho'baga tegishliligi maqolaning nomlanishida keltirilishi kerak (masalan: 1-N.Mirzayeva).

Originallik darajasi 70 foizdan yuqori bo'lgan maqolalar konferensiya to'plamiga kiritiladi.

Havola va foydalanilgan adabiyotlarning berilish tartibi: manba havolasi katta qavs ichida, muallif familiyasi, nashr yili va sahifasi ko'rsatilgan tartibda beriladi. Masalan: [Ne'matov, 2005; 56]. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati alifbo tartibida matn so'ngida beriladi. Adabiyotlar soni 5 tadan kam bo'lmasligi lozim.

Ushbu talablarga javob bermaydigan ilmiy maqola va tezislari qabul qilinmaydi. Matnda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun javobgarlik muallif zimmasida bo'ladi. Tashkiliy qo'mita qabul qilinmagan tezislarni mualliflarga qaytarish va izoh berish majburiyatini olmaydi.

TASHKILIY QO'MITA MANZILI

Tashkilot: Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti.

Manzil: Toshkent shahar, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy.

Telefon: +998712030128